



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



IJTIMOIIY TARMOQLAR VA KITOB: RAQOBAT VA UYG'UNLIK

Munisa Karimova

*Samarqand davlat chet tillar instituti Ingliz
filologiyasi kafedrasi katta o'qituvchisi*

Ibroximov Og'abek Otabek o'g'li

SamDCHTI Kechki fakulteti

2-bosqich 2324-guruh talabasi

ogabekibroximov190@gmail.com

Annotatsiya. Bizga ma'lumki XXI asr fan va texnika asri bo'ldi. Bu asrda ko'plab yangi texnologiyalar yaratildi, ijtimoiy rivojlandi. Olimlar hattoki XXI asrda sun'iy ongni ham yaratdilar. Ammo yangi texnologiyalar rivojlangani sari insonlar orasida kitob mutolaasiga bo'lgan talab darajasi sezilarli darajada pasaydi desak adashmagan bo'lamiz. Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlar hamda kitoblar o'rtasidagi birlashuv va raqobat haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: *ijtimoiy tarmoq, media, kitob, kitobxonlar, sun'iy intellekt, kutubxona, jahon adabiyotlari.*

Kitob bu muallif kitobxonlarga o'z bilimlarini, hayotiy tajribalarini, his-tuyg'ularini yetkazuvchi bir vositadir. Insonlar kitob orqali o'z bilim va malakalarini orttiradi. Kitobxonlar kitoblardagi ijobiy qahramonlarni yaxshi xislatlarini o'zlarining hayotlariga tadbiq etishga harakat qilishadi. Bu esa ularga kelajakda ularga juda foydali bo'ladi. Biroq, hozirda yoshlar o'z vaqtlarini bilim olishga, kitob mutolaa qilishga safrlash o'rniga vaqtlarini ijtimoiy tarmoqlarga hamda turli xil keraksiz, foydasiz o'yinlar o'ynashga safrlashyapti. Agar shu zaylda davom etadigan bo'lsak, yaqin 20-30 yil ichida yoshlarimiz savodsiz bo'lib ulg'ayishlari mumkin.

Donishmandlardan biriga: "Inson kitob o'qish orqali saodatga erishishi mumkinmi?" deb savol berishganda, u: "Kitob o'qishning o'zi saodatdir", deya javob bergan ekan. Muqaddas bitiklarda ham avvalo so'z bino bo'lgan, deb aytiladi. So'z bu ilm olmoq, umrning mazmuni-mohiyatini, dunyoning sir-asrorini ma'rifat bilan anglashni bildiradi. Ayniqsa, yoshlar uchun kitob mutolaasi o'ta muhimdir. Chunki, kitob o'qish, ilm olish orqaligina insonda badiiy tafakkur, did va qarash shakllanadi. Haqiqiy adabiyot to'g'risida mutolaa tasavvurga ega bo'lmay turib, hayotning mazmunini, qadr-qimmatini anglab bo'lmaydi. [2]

Kitob mutolaasining isnonga juda ko'p afzalliklari mavjud. Misol uchun:

1. Kitob o'qish yoshlarga so'z boyligining oshishiga yordam beradi. E'tibor bergan bo'lsangiz ko'pchilik siyosatchilar, mashhur shaxslar nutq so'zlayotganlarida judayam chiroyli, donalab xato qilmasdan nutq so'zlashadi. Bu esa to'g'ridan to'g'ri ko'proq kitob



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



o'qish bilan bog'liqdir. Agar biz ham ularga o'xshab ko'proq kitob mutolaa qilsak, o'z ustimizda ishlasak albatta biz ham ulardek chiroyli nutq so'zlaydigan shaxslar bo'lamiz.

2. Kitob mutolaasi insonning ma'naviy tafakkurini oshiradi. Chunki biz kitob o'qiyotganimizda asar qahramonlarining dardini his qilamiz, asarning asl maqsadini bilishga harakat qilamiz. Natijada biz asardan ko'plab ma'naviy ozuqa olamiz.

3. Insonlarning aqliy salohiyatini oshiradi. Bunda biz aqliy salohiyat deganda tez fikrlash, xotirani kuchaytirish va albatta ijodkorlik haqida gapirmoqchimiz. Albatta agar biz ko'proq mutolaa qilsak bizning xotiramiz ko'proq ma'lumotlarni saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bundan tashqari mantiqiy savollarga ham tez, aniq javob berish ham bevosita kitob bilan bog'liqdir.

Kitob hamda ijtimoiy tarmoqlar o'rtasidagi uyg'unlik haqida gapiradigan bo'lsak, bizga ijtimoiy tarmoqlarning foydali tomonlari ko'p agarda ulardan oqilona foydalana olsak. Masalan:

1. Ijtimoiy tarmoqlar orqali ko'proq yoshlarni kitobxonlikka jalb qilishimiz mumkin. Biz odatiy ya'ni oflayn holda 10 kishini kitobxonlikka jalb qilsak, onlayn xolda esa buning 2-3 baravarigacha insonlarni kitobxonlikka jalb qila olamiz. 2. Bundan tashqari ijtimoiy tarmoqlar orqali biz onlayn klublar, debatlar tashkil etishimiz mumkin. Misol uchun O'zbekistonlik kitobxonlar onlayn tarzda bema'lol Fransiya yoki Germaniyadagi kitobxonlik klublariga qo'shilishlari va muammosiz ular bilan fikr almashish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

3. Internet orqali biz audio kitoblar va elektron kitoblarni mutolaa qilish imkoniyatiga egamiz. Elektron kitoblar bizga mablag'imizni tejashga va xohlagan kitobimizni istagan joyimizda o'qishga yordam beradi. Ijtimoiy tarmoqlarda audio va elektron kitoblar mavjud bo'lgan juda ko'p saytlar, kanallar bor. Bundan tashqari hozirda yurtimizda elektron kutubxonalar ha mavjud. Siz u yerdan jahon, o'zbek adabiyotlarini topishingiz mumkin.

Ijtimoiy tarmoq hamda kitoblar o'rtasidagi qarshiliklar haqida gapiradigan bo'lsak, ular juda ko'p emas. Misol uchun:

1. Diqqatning chalg'ishi. Bir kishi kitob mutolaa qilayotgan paytda unga ijtimoiy tarmoqdan xabar keldi. U inson xabarni o'qiyman deb mutolaani to'xtatadi. Bitta xabar o'qiyman degan shaxs kamida 5-10 daqiqa telefonga chalg'ib ketadi. Natijada mutolaa ham to'xtaydi, uning diqqati ham buziladi.

2. Vaqtning sarflanishi. Yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek, hozirda yoshlar o'z vaqtlarining deyarli 85-90 foizini ijtimoiy tarmoqqa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabr kuni qabul qilingan PQ-3271 sonli "Kitob mahsulotlarini nasarflashyapti. Bu esa ularning bilim olishiga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi.

3. Ijtimoiy tarmoqlar bugun qudratli axborot qurolga aylangan. Dunyo miqyosida mafkuraviy-g'oyaviy tahdidlarni targ'ibot va tashviqot etishda muhim omil vazifasini o'tamoqda. Ijtimoiy tarmoqlar yordamida yoshlarning qalbi, ongi va ruhiyatiga ta'sir



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning natijasida yoshlar ma'naviyati izdan chiqishiga olib kelmoqda. [1]

Yurtimizda ham kitobxonlikni oshirish bo'yicha juda ko'p ishlar olib borilmoqda, ko'rsatuvlar tashkil qilinmoqda. Xususan yurtimizda har yili "Yosh kitobxon" tanlovi o'tkazilib kelinmoqda. Bu tanlov butun respublika bo'yicha o'tkazilinmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad esa yoshlarni kitobxonlikka jalb qilish, kitobxon yoshlarning soni oshirishdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabr kuni qabul qilingan PQ-3271 sonli "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoaalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarori ijrosi yuzasidan joylarda kitobxonlik, mutolaa madaniyatini targ'ib qilishga qaratilgan tadbirlar davom etmoqda. Jumladan, joriy yilning 10 sentyabr kuni Qashqadaryo sinov va sertifikatlashtirish markazi davlat korxonasi va Qashqadaryo standartlashtirish metrologiya boshqarmasida "Qashqadaryo ko'zgusi nashriyoti va kitob savdosi media markazi" UK bilan hamkorlikda navbatdagi kitoblar yarmarkasi tashkil etildi. Unda mamlakatimizning yetakchi nashriyotlari tomonidan chop etilgan bolalar adabiyotlari, ilmiy nashrlar, milliy va jahon adabiyotini o'zida jamlagan 140 dan ziyod kitoblar savdoga qo'yildi. [3]

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam kitoblar insonlarning bir bo'lagidir. Inson hech qachon kitobsiz yasholmaydi. Chunki kitoblar bilim manbayi hisoblanadi. Shunday ekan yoshlarimizni ko'proq kitob o'qishga o'rgataylik. O'zimiz ham shuni odat qilib olaylik. Zero kitob o'qimagan, bilim olmagan odamni o'lik odamdan farqi qolmaydi. Yurtimizda kitobxonlikni rivojlantirish uchun qo'limizdan kelgancha harakat qilaylik. Kelajakni yaxshilash ham, uni parokanda qilish ham o'zimizning qo'limizdadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://slib.uz/uz/article/view?id=16255&utm>
2. <https://gujum.uz/mutolaa/jamiyat-taraqqiyoti-va-yoshlar-tarbiyasida-kitobning-rol/?imlo=l&utm>
3. <https://www.standart.uz/news/view?id=1627&utm>